



SURXONDARYO VILOYATI DEMOGRAFIK JARAYONLARINING KOMPLEKS TAHLILI, TENDENSIYALARI, HUDUDIIY TAFOVUTLAR VA IJTIMOIIY-IQTISODIIY MUAMMOLAR

O‘zbekov Daler Oybek o‘g‘li

Termiz davlat universiteti Geografiya ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Tovarova Nilufar Ulug‘bek qizi

Termiz davlat universiteti Geografiya ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatining 2024–2026-yillardagi demografik holati, aholi sonining o‘shish sur‘atlari, urbanizatsiya darajasi, tabiiy va mexanik harakatlar tahlil qilinadi. Rasmiy statistik ma’lumotlar asosida viloyatda tug‘ilish koeffitsiyentining kamayishi, tashqi migratsiya saldosining salbiy ko‘rinishi va hududlar kesimidagi demografik nomutanosibliklar yoritilgan. Shuningdek, aholining yosh tarkibi va uning mehnat bozoriga ta’siri bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy muammolar muhokama etilib, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: demografik holat, doimiy aholi, urbanizatsiya darajasi, tabiiy o‘shish, salbiy migratsiya saldosi, yosh tarkibi, mehnat bozori, ijtimoiy infratuzilma.

КОМПЛЕКСНЫЙ АНАЛИЗ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ, ТЕНДЕНЦИЙ, РЕГИОНАЛЬНЫХ РАЗЛИЧИЙ И СОЦИАЛЬНО- ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ.

Аннотация. В данной статье анализируются демографическая ситуация, темпы роста населения, уровень урбанизации, естественное и механическое движение в Сурхандарьинской области в период 2024–2026 годов. На основе официальных статистических данных освещены такие процессы, как снижение коэффициента рождаемости, отрицательное



сальдо внешней миграции и демографические диспропорции в разрезе районов. Также рассматриваются социально-экономические проблемы, связанные с возрастной структурой населения и её влиянием на рынок труда, и выдвигаются предложения по их решению.

Ключевые слова: демографическая ситуация, постоянное население, уровень урбанизации, естественный прирост, отрицательное сальдо миграции, возрастная структура, рынок труда, социальная инфраструктура.

COMPLEX ANALYSIS OF DEMOGRAPHIC PROCESSES, TRENDS, REGIONAL DIFFERENCES AND SOCIO-ECONOMIC PROBLEMS OF SURKHANDARYA REGION

Abstract. This article analyzes the demographic situation, population growth rates, urbanization levels, and natural and mechanical movements in the Surxondaryo region between 2024 and 2026. Based on official statistical data, it highlights processes such as the decline in birth rates, the negative net migration rate, and demographic imbalances across districts. Additionally, socio-economic challenges related to the age structure of the population and its impact on the labor market are discussed, and recommendations for addressing these issues are proposed.

Keywords: demographic situation, permanent population, urbanization rate, natural increase, negative migration balance, age structure, labor market, social infrastructure.

Adabiyotlarni o'rganish. Mazkur maqola Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining 2025-yil yanvar-dekabr oylari davomidagi "Surxondaryo viloyatining statistik axborotnomasi" asosida tahlil qilindi. Shuningdek, O'zbekistonda demografiya va aholi geografiyasi maktabining rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan olimlar – A.Soliyev, Ya.Asanov, R.Ubaydullayeva, Z.Xudayberdiyev va M.Bo'riyevalarning ishlarida hududiy demografik tafovutlar



chuqur tahlil qilingan. Akademik A.Soliyev o'zining iqtisodiy geografiyaga oid tadqiqotlarida Farg'ona vodiysi va Surxondaryo kabi tabiiy ko'payish yuqori bo'lgan voqa hududlarida urbanizatsiya darajasining pastligi qishloq joylarida "yashirin ishsizlik" va er resurslariga bosimni oshirishini ilmiy jihatdan isbotlab bergan.

Kirish. Aholi demografiyasi har qanday hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini belgilab beruvchi asosiy omildir. Surxondaryo viloyati o'zining yuqori demografik salohiyati va yoshlar ulushining ko'pligi bilan mamlakatimiz hududlari orasida alohida ajralib turadi. Biroq so'nggi yillardagi statistik ko'rsatkichlar viloyatda nafaqat miqdoriy o'sish, balki jiddiy tarkibiy muammolar shakllanayotganini ko'rsatmoqda. Xususan, barqaror salbiy migratsiya saldos, urbanizatsiya darajasining pastligi va tabiiy o'sish sur'atlarining muayyan darajada sekinlashishi shular jumlasidandir. Mazkur maqolada viloyat statistika boshqarmasining so'nggi rasmiy hisobotlari asosida ushbu ijtimoiy-demografik jarayonlar chuqur tahlil qilinadi va mavjud muammolarning yechimlari muhokama etiladi.

Asosiy qism. Dastlabki statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2026-yil yanvar holatiga viloyatda doimiy aholi soni 3 million 11,0 ming kishini tashkil qildi. Viloyat aholisi yil boshidan buyon 65,5 ming kishiga yoki 2,2 foizga ko'payganini ko'rishimiz mumkin. Bu raqamlar viloyatda demografik o'sish hamon ijobiy dinamikada ekanini ko'rsatsa-da, uning ichki tuzilishi tahlil qilinganda jiddiy nomutanosibliklar ko'zga tashlanadi.

Viloyat demografiyasining eng asosiy o'ziga xosligi va ayni paytda iqtisodiy muammosi – urbanizatsiya (shaxarlashish) darajasining pastligidir. Bugungi kunda shahar joylarida 1 million 87,0 ming kishi istiqomat qiladi, bu esa jami aholi sonining bor-yo'g'i 36,1 foizini tashkil etadi. Aksincha, aholining asosiy qismi, ya'ni 1 million 924,0 ming kishi (63,9 foizi) qishloq joylarida yashaydi. Bunday yuqori qishloq aholisi ulushi viloyat iqtisodiyotining hamon agrar sektorga, ya'ni



qishloq xo'jaligiga kuchli darajada bog'liqligini ko'rsatadi hamda sanoat va zamonaviy xizmat ko'rsatish sohalarini hududlarda jadalroq rivojlantirish zarurligini kun tartibiga qo'yadi.

	<i>kishi</i>			<i>har 1000 kishiga</i>	
	<i>2024 y.</i>	<i>2025 y.</i>	<i>o'sish, kamayish</i>	<i>2024 y.</i>	<i>2025 y</i>

Tug'ilganlar	84 054	81 885	2169	28,9	27,5
O'lganlar	12 621	12 891	-270	4,3	4,3

Shujumladan:

bir yoshgacha bolalar
1000 tug'ilgan bolalarga
nisbatan

Tabiiy o'sish	71 433	68 994	-2439	24,6	23,2
Nikohlar	23 263	22 751	-512	8,0	7,6
Ajrimlar	2 893	3 143	250	1,0	1,1

Aholining tabiiy harakati


(2025-yil yanvar-dekabr oylari)

Viloyatda tug'ilish ko'rsatkichlarida ma'lum darajada pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda, bu esa kelajakda mehnat resurslari shakllanishiga bevosita ta'sir o'tkazadi. 2024-yilda viloyatda tug'ilganlar soni 84 054 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning mos davrida bu ko'rsatkich 81 885 nafargacha kamaydi. Ya'ni, tug'ilganlar soni bir yil ichida 2 169 nafarga qisqargan. Tug'ilish koeffitsiyenti har 1000 aholiga nisbatan 28,9 promilledan 27,5 promillegacha tushgan. Ushbu pasayish jarayoni, ayniqsa, Angor, Muzrabot, Jarqo'rg'on, Bandixon va Denov tumanlarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi ham keskin farq qiladi. Viloyatda eng ko'p aholi to'plangan hudud Denov tumani bo'lib, unda 440,5 ming



kishi istiqomat qiladi va bu viloyat jami aholisining qariyb 14,6 foiziga tengdir. Keyingi o‘rinlarni Qumqo‘rg‘on tumani (267,2 ming kishi) va Jarqo‘rg‘on tumani (249,0 ming kishi) egallaydi. Aksincha, eng kam aholi soni Bandixon tumanida (87,6 ming kishi yoki jami aholining 2,9 foizi) hamda Termiz tumanida (89,7 ming kishi) qayd etilgan. Ma‘muriy markaz hisoblangan Termiz shahrida esa 213,0 ming kishi yashaydi va u viloyatdagi qishloq aholisi mavjud bo‘lmagan yagona to‘liq shahar maqomidagi hududdir.



Shahar va qishloq joylarida yashovchi aholi sonining tarkibi


(2025-yil yanvar-dekabr holatiga, ming kishi)

Shu bilan birga, o‘lim ko‘rsatkichlarida biroz o‘shish kuzatilgan: 2024-yildagi 12 621 ta o‘lim holati 2025-yilda 12 891 taga yetgan (har 1000 kishiga nisbatan 4,3 promille). Tug‘ilishning kamayishi va o‘limning ko‘payishi natijasida aholining tabiiy o‘sishi 2024-yildagi 71 433 kishidan 2025-yilda 68 994 kishigacha (2 439 nafarga) kamaygan. Bu ijtimoiy o‘zgarishlar oila instituti inqirozi bilan ham bog‘liqdir.

Viloyatda qayd etilgan nikohlar soni 23 263 tadan 22 751 taga kamaygan bir sharoitda, oilaviy ajrimlar soni 2 893 tadan 3 143 taga ko‘paygan. Har 1000 aholiga nisbatan eng ko‘p ajralish holatlari Termiz shahri, Bandixon va Sho‘rchi tumanlarida



(har birida 1,4 promille) kuzatilmoqda. Bu holat yosh oilalarni ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini qayta ko'rib chiqish lozimligini anglatadi.



Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni

(2025-yil yanvar-dekabr oylarida)


(ming kishiga nisbatan promellida)

Surxondaryo viloyati aholisining yosh tarkibi nihoyatda yosh xarakterga ega ekanligi bilan ajralib turadi. 2025-yil boshidagi ma'lumotlarga ko'ra, viloyatdagi jami qariyb 2,95 million aholidan 1 million 94,9 ming nafari, ya'ni qariyb 37,2 foizini 0-16 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlar tashkil etadi. Ushbu guruh ichida 0-2 yoshdagi kichik bolalar soni 248,2 ming nafarni, bog'cha yoshidagi (3-6 yosh) bolalar soni 284,5 ming nafarni va maktab yoshidagi (7-16 yosh) bolalar soni 562,1 ming nafarni tashkil qiladi. Bunday ko'rsatkich viloyatda ijtimoiy infratuzilmaga, xususan, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumta'lim maktablariga bo'lgan yuklamaning o'ta yuqoriligini anglatadi. Har yili maktab yoshiga yetayotgan yuz minglab bolalar uchun yangi o'quv binolari qurish, ta'lim sifatini ta'minlash va kelajakda ularni barqaror ish o'rinlari bilan ta'minlash viloyat hokimiyati oldidagi eng katta strategik vazifadir.

Surxondaryo viloyatining barqaror rivojlanishiga eng katta to'siq bo'layotgan omillardan biri – bu viloyatdan aholining doimiy ravishda ko'chib ketishidir. Viloyat



uzoq yillardan buyon mexanik harakatda salbiy migratsiya saldosiga ega bo'lib kelmoqda va bu ko'rsatkich yildan-yilga yomonlashmoqda. 2025-yil davomida viloyatga ko'chib kelganlar soni 10 832 kishini tashkil etgan bo'lsa, viloyatdan doimiy yashash uchun ko'chib ketganlar soni 14 383 kishiga yetgan. Natijada migratsiya saldosi minus 3 551 kishini tashkil etdi (bu ko'rsatkich 2024-yilda minus 3 018 kishi edi).



Hududlar kesimida tahlil qilinganda, aholining ko'chib ketishi deyarli barcha tumanlarda kuzatilmoqda. Eng og'ir vaziyat Jarqo'rg'on tumanida (minus 832 kishi), Sherobod tumanida (minus 582 kishi), Qumqo'rg'on tumanida (minus 503 kishi), Sariosiyo tumanida (minus 480 kishi) va Boysun tumanida (minus 466 kishi) qayd etilgan. Viloyatda faqatgina Termiz shahri (+1 742 kishi) va Termiz tumani (+263 kishi) ijobiy migratsiya saldosiga ega. Bu esa aholining nafaqat viloyatdan tashqariga intilayotganini, balki viloyat ichida ham tumanlardan ma'muriy markazga qarab ko'chayotganini (ichki urbanizatsiya) ko'rsatadi.

Viloyatdan yiliga 14 mingdan ortiq kishining ko'chib ketishi va salbiy saldoning o'sib borishi iqtisodiy faol, bilimli va mehnatga layoqatli aholining boshqa hududlarga (asosan Toshkent shahri va xorijga) chiqib ketayotganidan dalolat beradi. Aholining qariyb 37 foizini yoshlar tashkil etishi sababli, mehnat bozoriga har yili katta miqdorda yangi ishchi kuchi kirib kelmoqda. Mahalliy



iqtisodiyotda ish o‘rinlari yaratish sur‘ati esa demografik o‘shish tezligidan orqada qolmoqda, bu esa ishsizlik darajasini nazorat qilishni qiyinlashtiradi. Qishloq joylarida ijtimoiy yuklama: Aholining qariyb 64 foizi qishloqlarda yashashi sababli er resurslariga bo‘lgan yuklama ortib bormoqda, bu esa qishloq xo‘jaligida yashirin ishsizlik va mavsumiy daromadga bog‘liqlik muammolarini keltirib chiqaradi.

Xulosa va Takliflar

Surxondaryo viloyatining demografik salohiyatidan oqilona foydalanish va mavjud tarkibiy muammolarni yumshatish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur deb hisoblanadi:

❖ tumanlar sanoatini rivojlantirish lozim. Denov, Jarqo‘rg‘on va Qumqo‘rg‘on kabi aholi zich joylashgan tumanlarda agrosanoat klasterlari, to‘qimachilik va ishlab chiqarish korxonalarini ko‘paytirish orqali salbiy migratsiya oqimini kamaytirish mumkin.

❖ ijtimoiy infratuzilmani kengaytirish dasturlarini davom ettirish zarur. 0-16 yoshgacha bo‘lgan 1 milliondan ortiq yosh avlod uchun bog‘chalar va zamonaviy maktablar qurish sur‘atini ikki barobar oshirish talab etiladi.

❖ oilaviy institutlarni tizimli qo‘llab-quvvatlash lozim. Ajrimlar soni yuqori bo‘lgan Termiz shahri, Bandixon va Sho‘rchi tumanlarida ijtimoiy-psixologik maslahat markazlarini faollashtirish va yosh oilalarni uy-joy hamda imtiyozli kreditlar bilan ta‘minlash tizimini kuchaytirish kerak.

❖ zamonaviy xizmatlar va raqamli texnologiyalar (IT) infratuzilmasini chekka hududlarga olib kirish lozim. Bu qishloq yoshlariga o‘z yashash joyini tark etmagan holda yuqori daromadli ish o‘rinlariga ega bo‘lish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Soliyev A. O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. – Toshkent: "Universitet", 2014. – 412 b.
2. Rybakovsky L. L. Prakticheskaya demografiya (Практическая демография). – Moskva: SGI, 2005. – 264 s.



3. Bloom D. E., Canning D., Sevilla J. The Demographic Dividend: A New Hope for the Developing World. – Santa Monica: RAND Corporation, 2003. – 102 p.
4. Bo‘riyeva M. R. O‘zbekistonda oila demografiyasi. – Toshkent: "Universitet", 2008. – 196 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining doimiy aholi soni va demografik jarayonlari ko‘rsatkichlari. Rasmiy elektron resurs. www.stat.uz
6. Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi. Surxondaryo viloyatining demografik holati: Statistik tahliliy hisobot (2024–2025-yillar yakunlari). – Termiz, 2026. – 78 b. Rasmiy elektron resurs. www.surxonstat.uz